



CONCEPT AND TYPES OF DAMAGE CAUSED BY CRIME

Kayumov Umid Ismatillaevich

Prosecutor's office of Tashkent region

senior prosecutor of the department

umid9449@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14135632>

ARTICLE INFO

Received: 06th November 2024

Accepted: 12th November 2024

Online: 13th November 2024

KEYWORDS

Punishment, liability, crime, damage, moral, material, delivery, judicial system, reform.

ABSTRACT

This article analyzes the issues related to the concept and types of damage caused as a result of crime. Also, in the article, the author analyzed the opinions of scientists related to the concept of damage caused by crime and gave his suggestions and recommendations.

ПОНЯТИЕ И ВИДЫ УЩЕРБА, ПРИЧИНЕННОГО ПРЕСТУПЛЕНИЕМ

Каюмов Умид Исмаиллаевич

Прокуратура Ташкентской области старший прокурор отдела

umid9449@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14135632>

ARTICLE INFO

Received: 06th November 2024

Accepted: 12th November 2024

Online: 13th November 2024

KEYWORDS

Наказание, ответственность, преступление, вред, моральный, материальный, наказание, судебная система, реформа.

ABSTRACT

В данной статье анализируются вопросы, связанные с понятием и видами ущерба, причиненного в результате преступления. Также в статье автор проанализировал мнения ученых относительно понятия ущерба, причиненного преступлением, и дал свои предложения и рекомендации.

JINOYAT NATIJASIDA YETKAZILGAN ZARAR TUSHUNCHASI VA TURLARI

Kayumov Umid Ismatillayevich

Toshkent viloyati prokuraturasi bo'lim katta prokurori

umid9449@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14135632>

ARTICLE INFO

Received: 06th November 2024

Accepted: 12th November 2024

Online: 13th November 2024

KEYWORDS

ABSTRACT

Mazkur maqolada jinoyat natijasida yetkazilgan zarar tushunchasi va turlariga doir masalalar tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada muallif jinoyat natijasida



Jazo, javobgarlik, jinoyat, zarar, ma'naviy, moddiy, yetkazish, sud-huquq, tizimi, isloh qilish.

yetkazilgan zarar tushinchasi bilan bog'liq olimlarning fikrlarini ham tahlil etib, o'zining taklif va tavsiyalarini bergan.

Zamonaviy fuqarolik jamiyatida inson huquqlarini taminlashning huquqiy usullari standartlar va umumiy hayot normasidagi muammolarning muhim qismi hisoblanadi. Inson huquqlari boshqa huquq sohalariga qaraganda alohida ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi jinoyatchilik soni keskin oshib borayotgan bir davrda qonunchiligimiz jabrlanuvchilarning manfaatlarini himoya qilishning qo'shimcha choralarini ko'zda tutib o'tmagan. Shu bois bunday kafolatlarni belgilash hamda me'yoriy hujjatlar asosida qonunchilikka kiritish muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Tergov hamda sud amaliyotidan bizdan yaxshi ma'lumki, odatda jinoyat natijasida zarar yetkazgan shaxs jabrlanuvchiga yetkazilgan zarar qoplashning real imkoniyatiga ega bo'lmaydi. Shu sababli ko'plab rivojlangan mamlakatlar bu borada salmoqli ihslarni amalga oshirib jabrlanuvchining huquqlarini himoya qilish maqsadida ularga davlat tomonidan kompensatsiya to'lab berish tartibini joriy qilishga erishishgan. Misol tariqasida Shvetsariya, AQSH, Yaponiya davlatlarini ko'rib o'tadigan bo'lsak, dastlab AQSHda 1984-yil 12-oktabrdagi "Jinoyat qurbonlarini himoya qilish to'g'risida"gi Federa qonuni, Shvetsariyada esa, davlat konstitutsiyasining tegishli moddalarida va Yaponiyada 1980-yilda qabul qilingan kompensatsiya to'lash haqidagi qonunlarning mavjudligi ham ushbu davlatlarda jabrlanuvchilarning huquq va manfaatlarini nechog'lik darajada himoya qilinishini ko'rsatib beradi.

Yuqoridagi fikrimiz isboti o'laroq O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning tegishli normalariga e'tibor beradigan bo'lsak, fuqarolarning hayoti, sog'ligi, sha'ni, qadr-qimmati va mulki huquqiy muhofaza qilish obyekti sifatida belgilab qo'yilganligini ko'rishimiz mumkin. Shu boisdan ham fuqarolarning hayoti, sog'ligi, sha'ni qadr-qimmati va mulkiga yetkazilgan zarar to'lash bunday himoyaning huquqiy usullaridan biri sifatida maydonga chiqadi.

Hozirgi kunda jadal rivojlanayotgan dunyoda jinoyatchilik va huquqbuzarlikning turlari rivojlanib ularning soni ortib borayotgani hech birimizga sir emas. Bu esa o'z navbatida insonlarning huquq va manfaatlariga o'z salbiy ta'siri o'tkazmay qolmayotgani yo'q. Bu borada ko'pchilik insonlar jinoyatchilik natijasida mulkiy ma'naviy va jisimoiy zarar ko'rayotgani bois ham Jinoyat protsessual qonunchiligimizda zararni qoplash institutining o'rni yuksalib, dolzarblashib bormoqda. Fikrimizni davom ettirib, jinoyat natijasida yetkazilgan zarar qoplash instituti haqida fikr bildirar ekanmiz Jinoyat protsessual kodeksining 33-bobi aynan jinoyat natijasida yetkazilgan zarar qoplashga bag'ishlanganidan ham bu institutning nechog'lik muhim ekanligini anglab olish mushkul emas. Jinoyat natijasida yetkazilgan zarar mavzusida fikr bildirar ekanmiz, avvalo, zarar tushunchasi va uning ziyon bilan o'zaro farqli jihatlari haqida bilib olishimiz maqsadga muvofiqdir.

Dastlab zarar so'zining huquqiy ma'nosiga etibor beradigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasining Milliy Ensiklopediyasida zarar deganda, "bir shaxsga ikkiki bir shaxsning huquqbuzarligi tufayli etkazilgan pul ko'rinishidagi ziyondir deyilgan. Shuningdek zarar



moddiy zarar shaxsning mol-mulkiga, manaviy zarar esa shaxsning hayot va sog'ligi hamda ishchanlik obro'siga putur yetkazishidan iborat" ekanligi bayon etilgan.¹

Ziyon tushuncha fuqarolik huquqiga oid bo'lib, ziyon bu shaxslarning har qanday xatti-harakati tufayli boshqa shaxslarning hayotiga, mol-mulkiga yetkazilgan zarar tushuniladi. Zarar arab tilida "ziyon" "shikast" ma'nolarini anglatadi. O'zbek tiliga "ziyon" ma'nosi bilan qabul qilingan.²

Shuningdek O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasida, huquqiy nuqtayi nazarda "ziyon" deb bir shaxsga ikkinchi bir shaxsning huquqbuzarligi tufayli yetkazilgan pul shaklidagi ziyoni³ tushunilishi kerakligi ta'kidlangan.

Huquqshunos olim N.Egamberdiyev zarar tushunchasi xususida fikr yuritib uning quyidagi uch holat asosida tushuntirishga taklif qilgan: Haqiqiy zarar; Boy berilgan foyda; Ma'naviy zarar.

Yuqoridagi fikrlardan anglashilganidek, qonunchiligimiz zarar va ziyon tushunchalari keng ko'lamda qo'llanilib kelishiga qaramay, hech bir huquqiy hujjatda ularning o'zaro farqi keltirib o'tilmagan.

Shuni ham alohida ta'kildash kerakki, Avvalo shuni qayd etish lozimki, jinoyat natijasida yetkazilgan mulkiy ziyonni qoplashning umumiy asoslari amaldagi Jinoyat-protsessual kodeksidabelgilangan bo'lib, u jinoyat-protsessual huquqining muhim institutlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining beshinchi bo'limi "Jinoyat natijasida yetkazilgan mulkiy ziyonni qoplash" deb nomlangan.

"Yuridik atamalar qomusiy lug'atida zararga savdo-sotiqdan ko'rilgan ziyon, yutqazish, shikast, ziyon deb ta'rif berilgan. Yuridik lug'atda "ziyon" tushunchasiga ta'rif berilmagan. Ziyon deganda – fuqaroning huquqi buzilishi natijasida boshidan o'tkazgan ma'naviy (ruhiy) azoblari sud tomonidan belgilangan miqdorda qoplanishi (ma'naviy ziyon uchun tovon), buzilgan huquqlarini tiklash uchun qilgan yoki qilishi lozim bo'lgan xarajatlari, uning mol-mulki yo'qolishi yoki shikastlanishi (haqiqiy zarar), shuningdek, bu fuqaro huquqlari buzilmaganida odatdagi fuqarolik muomalasi sharoitida olishi mumkin bo'lgan, lekin ololmay qolgan daromadlari (boy berilgan foyda) tushuniladi. Hamda bunday ziyon asosan shartnomaviy munosabatlarda va shartnomadan tashqari munosabatlarda kelib chiqishi mumkin".⁴

Fuqarolik kodeksining 14-moddasida ham zarar va boy berilgan foyda tushunchalariga ta'rif berilgan bo'lib, unga ko'ra, zarar deganda, "huquqi buzilgan shaxsning buzilgan huquqini tiklash uchun qilgan yoki qilishi lozim bo'lgan xarajatlari, uning mol-mulki yo'qolishi yoki shikastlanishi (haqiqiy zarar), shuningdek bu shaxs o'z huquqlari buzilmaganida odatdagi fuqarolik muomalasi sharoitida olishi mumkin bo'lgan, lekin ololmay qolgan daromadlari (boy berilgan foyda) tushuniladi⁵.

Jinoyat natijasida yetkazilgan mulkiy ziyon deyilganda, mulkiy yoki ma'naviy ziyon albatta jinoyat tufayli yoki aqli noraso shaxsning ijtimoiy xavfli qilmishi natijasida jinoyat

¹ O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. – T.: 35-bet

² Sh. Rahmatullayev. O'zbek tilining etimologik lug'ati. 2-jild. Toshkent. 2003-yil 140-bet.

³ O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi – T.:Sharq, 2006. T. 3 671-bet.

⁴ Hamroqulov B.M. Ma'naviy zararni qoplashning huquqiy tartibga solinishi muammolari. – T. 2008. 19-bet.

⁵ Fuqarolik kodeksi 14-moddasi <https://lex.uz/docs/111189>



sodir etgan shaxsning jabrlanuvchiga nisbatan uning sog'lig'iga, hayotiga, mulkiga yetkazilgan zarar tushuniladi. Ayrim huquqshunos olimlar, jinoyat natijasida yetkazilgan mulkiy ziyonga faqatgina mulkiy zararni kiritganlar, shuningdek, ayrim olimlar tomonidan jinoyat natijasida yetkazilgan moddiy zararlarni ikki turga bo'lib, jismoniy (sog'lig'iga yetkazilgan ziyon) va mulkiy (moddiy zarar)ga bo'lganlar⁶.

Bizning fikrimizcha, yuqoridagi olimlarning fikrlariga tayangan holda, jinoyat natijasida yetkazilgan mulkiy ziyon ham jismoniy ham mulkiy, ham ma'naviy zararlarni o'z ichiga oladi. Chunki, yuqorida takidlab o'tilganidek shaxsga nisbatan jismoniy (sog'lig'iga yetkazilgan ziyon) yoki mol-mulkiga (moddiy ziyon) hamda jinoyat natijasida yetkazilgan mulkiy va jismoniy zarar natijasida kelib chiqqan ma'naviy zarar ko'rinishida yetkazilishi mumkin.

Mulkiy zarar – jismoniy yoki yuridik shaxsga jinoyat natijasida yoki fuqarolik huquqiy munosabatdan kelib chiqqan, shaxs tomonidan qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasida yetkazilgan moddiy zarar hisoblanadi. Bu moddiy zarar moddiy qiymatlikda yoki nomoddiy qiymatlik shaklida (aksiyalarning egalik huquqi o'g'irlanishi) bo'lishi mumkin. Umumiy qoidaga ko'ra, yetkazilgan mulkiy zarar ayblanuvchi tomonidan jabrlanuvchiga yetkazilgan zararning miqdoricha to'la miqdorda qoplanishi kerak. Yetkazilgan mulkiy zararni kamroq miqdorda qoplashga faqat qonun yoki shartnomada nazarda tutilgan hollarda yo'l qo'yilishi tegishli qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan. Fuqarolik kodeksining 14-moddasidan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, mulkiy zarar "haqiqiy zarar" va "boy berilgan foyda" kabi turkumlarga bo'linadi.

Haqiqiy zarar deganda, buzilgan mulkiy huquqni tiklash uchun qilingan yoki qilinishi kerak bo'lgan xarajatlar, mol-mulkning yo'qolishi, kamayishi, nobud bo'lishi, shikastlanishi tushuniladi. Masalan, Jinoyat kodeksining 266-moddasida ko'rsatilgan sodir etilgan jinoyat natijasida jabrlanuvchi o'z mulki bo'lgan, shikastlangan avtoullovini ta'mirlatishi uchun qilgan xarajatlarini misol qilib keltirish mumkin.

Boy berilgan foyda deganda, zarar ko'rgan shaxsning huquqlari buzilmaganida olinishi mumkin bo'lgan, lekin olinmay qolgan daromad tushuniladi. Masalan, yuqoridagi misolni davom ettirgan holda, JKning 266-moddasida ko'rsatilgan jinoyat natijasida jabrlanuvchi o'z mulki bo'lgan, shikastlangan avtoullovini ta'mirlatishga ketgan vaqti davomida, ushbu avtoullovi bilan "Taksi"lik faoliyatini olib bora olmasdan qoladi va ta'mirlash vaqti davomida u ish faoliyati olib borishi mumkin bo'lgan holatida, olishi kerak bo'lgan daromadini ololmay qolishini aytish mumkin.

Amaldagi fuqarolik kodeksida mulkiy zarar mulkiy va ashyoviy huquqlar buzilgan taqdirda qo'llanishi mumkin bo'lgan javobgarlik sifatida belgilangan. Shuningdek, fuqarolarning moddiy huquqlari buzilishi natijasida ma'naviy ziyonni undirish yuzasidan sud amaliyotini o'rganadigan bo'lsak, sudlar asosan fuqarolarning moddiy huquqlari buzilishi oqibatida yetkazilgan zararni undirmoqdalar. Ma'naviy zararni qoplash masalasida nazar solsak, sudlar amaliyotida kam uchraganligini guvohi bo'lishimiz mumkin. Buning asosiy sababi esa, bunday ziyonni qoplash muddati bilan bog'liq.

Ayblanuvchi tomonidan ijtimoiy xavfli qilmishi natijasida sodir etgan mulkiy ziyon tabiiyki, fuqaroning hayoti va sog'lig'iga yetkazilgan moddiy ziyon ma'naviy ziyonni ham

⁶ Inog'omjonova Z.F., To'laganova G. Z. Jinoyat protsessi muammolari. O'quv qo'llanma. TDYI nashriyoti. 2009 y. 155-b.



keltirib chiqaradi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat- protsessual kodeksida mazkur norma jinoyat natijasida yetkazilgan ziyonni qoplashning qaysi turi (ma'naviy yoki moddiy)ga tegishliligi belgilanmagan. Agar unga umumiy qoida deb qaraydigan bo'lsak, unda fuqaroning hayoti va sog'lig'iga yetkazilgan moddiy ziyonni qoplashdagi cheklashni fuqaroning hayoti va sog'lig'iga moddiy ziyon yetkazilishi natijasida yuzaga kelgan ma'naviy ziyonga ham qo'llash masalasi muammoli bo'lib qoladi. Bu masalada esa faqat Fuqarolik kodeksiga murojaat qilib, ushbu kodeks bilangina tartibga solish mumkinligini ko'rish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 985-moddasiga ko'ra, "G'ayriqonuniy harakat (harakatsizlik) tufayli fuqaroning shaxsiga yoki mol-mulkiga yetkazilgan zarar, shuningdek yuridik shaxsga yetkazilgan zarar, shu jumladan boy berilgan foyda zararni yetkazgan shaxs tomonidan to'liq hajmda qoplanishi lozim". Bu esa fuqarolik huquqida zarar yetkazish ortidan kelib chiqadigan majburiyat hisoblanadi.

Zarar faqat mulkiy xarakterga ega bo'ladi. Ziyon esa, fuqaroning ma'naviy(ruhiy) azob chekishi, sog'lig'iga ziyon yetkazilishi bilan bog'liqdir va buning natijasida fuqaroning mulkiy yo'qolishi (kamayishi) ham mumkin.⁷ Zarar va ziyon tushunchalarini asosiy farqi, zarar fuqaroning mulkiy huquqlari (moddiy ne'matlari) buzilishi natijasiga qo'llaniladi. Agar noqonuniy harakat (harakatsizlik) natijasida fuqaroning shaxsiy nomulkiy huquqlari va boshqa nomoddiy ne'matlari kamsitilishiga olib kelgan holatlarda ziyon tushunchasi qo'llaniladi⁸.

G'ayriqonuniy ravishda jismoniy va ma'naviy azob yetkazilishi iqtisodiy mazmunga ega bo'lmaydi va uni qiymat shaklida ifodalanishi mumkin emas. Ammo bu xildagi azoblarning oqibatini bartaraf qilish uchun sarflangan harajatlarning qoplanishini jabrlanuvchi talab qilishga haqli. Ziyonni qoplash deganda, avallgi mulkiy holatni tiklash (olingan mol-mulkni qaytarish) yoki yetkazilgan moddiy ziyon uchun tovon haqi to'lash tushuniladi⁹.

Har qanday huquqiy harakat bajarilishida uning ortidan ma'lum miqdorda zarar yetkaziladi. Bu zararni kelib chiqishida har doim kimdir sababiy bog'lanish rolini o'ynaydi. G'ayriqonuniy qilmish bilan ziyon o'rtasida sababiy bog'lanish mavjud bo'lmasa, ziyon javob beruvchining harakati (harakatsizligi) natijasida yetkazilgan bo'lsa, uni javobgarlikka tortishning mutlaqo imkoniyati bo'lmay qoladi. Zarur sabab bo'lmasa, natija ro'y bermagan, sodir etilmagan hisoblanadi. Shaxs noqonuniy tarzda ozodlikdan mahrum etilgan va ma'lum muddatdan so'ng adolat qaror topib oqlangan hollarda uni reabilitatsiya qilish choralari ko'riladi. Ziyon yetkazgan yetkazgan shaxs kim bo'lishidan qat'iy nazar ziyon qoplanadi.

Mulkiy javobgarlik uchun ko'rsatilgan noqonuniy xizmat harakatlari bilan yetkazilgan ziyon o'rtasidagi sababiy bog'lanish mavjudligi aniqlangan bo'lsa shuning o'zi ziyon qoplanish uchun kifoya qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 275-moddasida, bevosita jinoyat tufayli yoki aqli noraso shaxsning ijtimoiy xavfli qilmishi natijasida fuqarolarga va yuridik shaxslarga yetkazilgan mulkiy ziyonni qoplash, shuningdek jabrlanuvchini dafn etish yoki uning statsionarda davolanish xarajatlarini hamda sug'urta tariqasida unga to'langan pul,

⁷ Hamroqulov B.M. Ma'naviy zararni qoplashning huquqiy tartibga solinishi muammolari. – T. 2008. 20-b.

⁸ Hamroqulov B.M. Ma'naviy zararni qoplashning huquqiy tartibga solinishi muammolari. – T. 2008. 20-bet.

⁹ U.A. Abduraxmonov. Surishtiruv, dastlabki tergov, prokuratura va sud organlari tomonidan fuqarolarga yetkazilgan mulkiy ziyonni qoplash// yu.f.n.disser...T. 2009. 21-bet



nafaqa yoki pensiya pulini undirish to'g'risidagi fuqaroviy da'volar jinoyat protsessida ko'riladi.

Jinoyat natijasida yetkazilgan ziyon shakllariga biz yuqorida qayd etilgan norma orqali javob olishimiz mumkin. Boisi, jinoyat natijasida yetkazilgan zarar va uni jinoyat protsessida undirilishi kerak bo'lgan ishlar qayd etilgan. Jinoyat natijasida zarar kimga yetadi? Jinoyat natijasida fuqarolarga zarar yetganida u fuqarolar o'zining buzilgan huquqlarini tiklash uchun harakat qiladi. Bu fuqarolar o'z da'vo va arz- shikoyatlarini sudga berishi qonun tomonidan mustahkamlangan.

Jinoyat protsessida fuqaroviy da'vo – bevosita jinoyat tufayli yoki aqli noraso shaxsning ijtimoiy xavfli qilmishi natijasida moddiy, jismoniy yoki ma'naviy zarar ko'rgan shaxsning, uning qonuniy vakili yoxud uning manfaatlari asosida prokurorning aybdorga yoki moddiy javobgar shaxsga nisbatan yetkazilgan moddiy va jismoniy zararni qoplash uchun jinoyat ishi qo'zg'atilgan paytdan boshlab to sud muhokamasi jarayoni tugaguniga qadar bildiriladigan va jinoyat ishini yuritishga mas'ul bo'lgan davlat organlari va mansabdor shaxslar tomonidan hal qilinishi lozim bo'lgan talabidir.

Bunday da'voni yozgan shaxs fuqaroviy da'vogar hisoblanadi. Jinoyat protsessida zararni undiriruvchi shaxs kim ekanligiga aniqlik kiritib oldik, jinoyat natijasida yetkazilgan ziyon turlarini muhokama qilamiz. Bevosita jinoyat tufayli yoki aqli noraso shaxsning ijtimoiy xavfli qilmishi natijasida fuqarolarga va yuridik shaxslarga yetkazilgan mulkiy ziyonni qoplash bu– jismoniy va moddiy zararlardir. Jismoniy zarar shaxsning hayotdan mahrum etilishida, unga tan jarohati yetkazilishida va sog'lig'iga zarar yetishida o'z ifodasini topadi. Jinoyat tufayli fuqaroning, korxonaning, muassasaning yoki tashkilotning mulkiy holatlariga zarar yetishi moddiy zararni keltirib chiqaradi. Ammo, shu bilan birga, moddiy zarar jinoyat tufayli mulkning o'ziga moddiy zarar yetmagan holatlarda ham masalan, jismoniy shikast olgan jabrlanuvchi o'z mehnat qobiliyatini qisman yo'qotishi oqibatida maoshining ma'lum ulushidan mahrum bo'lganida yoki uning qonuniy vakili uning davolanishi uchun dori-darmonga xarajat qilganida, protez sotib olganida, ko'mish marosimlari va boshqa shu kabilarga sarflagan xarajatida ham mavjud bo'lishi mumkin.

Rus manbalariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, zarar turlari haqida ma'lumotlar uchraydi:

1. Mulkka yetkazilgan zarar – jismoniy yoki yuridik shaxsga mulkka zarar yetkazilishi yoki shartnoma shartlarini bajarmaganligi natijasida yetkazilgan zarar. Odatda jinoiy nizolarda qo'llaniladi.
2. Ma'naviy zarar – noqonuniy harakatlar natijasida mulkiy bo'lmagan zarar. Bu shaxsning qadr-qimmatini pasaytirish, ma'naviy va jismoniy azoblarni keltirib chiqarishda, obro'siga putur yetkazishda va hokazolarda namoyon bo'ladi.

Ziyon turlarini farqlashda biz asosan buzilgan huquqni qayta tiklash bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarga e'tibor qaratishimiz lozimdir. Bu esa, jinoiy shuningdek, fuqarolik, ma'muriy va iqtisodiy me'yoriy hujjatlari va boshqa vositalar yordamida amalga oshiriladi¹⁰.

Jinoyat natijasida yetkazilgan zarar turlari quyidagilardir: Mulkka yetkazilgan ziyon; Shaxsga yetkazilgan ziyon; Ma'naviy ziyon.

¹⁰ U.A. Abduraxmonov. Surishtiruv, dastlabki tergov, prokuratura va sud organlari tomonidan fuqarolarga yetkazilgan mulkiy ziyonni qoplash// yu.f.n.disser.:T. 2009. 21-bet.



Jinoyat natijasida yetkazilgan ziyonni turlaridan mulkka yetkazilgan ziyon turi haqida to'xtalsak. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 304-moddasida belgilanganidek, rehabilitatsiya etilgan shaxsga surishtiruv, dastlabki tergov va sud organlarining qonunga xilof harakatlari tufayli yetkazilgan mulkiy ziyon va u to'la hajmda qoplanadi, deb qayd etilgan.

Mol-mulkka yetkazilgan ziyon uning nobud bo'lishi yoki shikastlanishida, undan foydalanish imkoniyatlarining kamayishida, huquqbuzarlik munosabati bilan ayblanuvchi qilgan harakatlarda yoki daromadlarning olinmasligida ifodalanishi mumkin. Mol-mulkka yetkazilgan ziyon haqida rus olimi T.N.Dobrovolskaya shunday degan, basharti fuqaro qonunga xilof ravishda jinoiy javobgarlikka tortilmaganida va mahkum qilinmaganida, u o'ziga tegishli ish haqini olgan bo'lar edi, undan musodara qilingan obligatsiyalarga chiqqan yutuqlar unga to'langan bo'lar edi, har qanday omonchi kabi unga ham davlat mehnat omonat (hozirgi xalq banki) kassalaridagi mablag'lar miqdoriga tegishli foizlar qo'shib yozilgan bo'lar edi¹¹.

Rehabilitatsiya qilingan shaxslarga ziyon yetkazilgan mol-mulkdan olinmay qolgan boshqa har qanday daromadlar (boy berilgan foyda) ham qoplanishi zarur. O'zbekiston Respublikasi Oliy sud Plenumining "Jinoiy harakatlar oqibatida yetkazilgan moddiy zararni qoplash masalasiga doir sud amaliyoti to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, jinoiy harakat oqibatida moddiy zarar yetkazilgan har bir ish yuzasidan hukm chiqarishda sud fuqaroviy da'voni hal etishi, agar bunday da'vo keltirilmagan bo'lsa, moddiy zararni undirish haqidagi qarorni o'z tashabbusiga ko'ra chiqarishi mumkinligi haqidagi masalani muhokama qilishi lozimdir. Aybdor shaxslarning mulkini xatlash mulkiy zarar qoplanishini ta'minlashning muhim shakllaridan hisoblanadi¹².

Xulosa qiladigan bo'lsak, mol-mulkka yetkazilgan ziyonni qoplashda agarda mulkziyon yetkazilishi oqibati butunlay nobud bo'lgan bo'lsa, unda uning o'rniga xuddi shu mulk narxiga teng pul mablag'lari beriladi. Ziyon yetkazilishi paytdagi ziyod miqdorini aniqlash o'sha paytda mavjud bo'lgan mulkning narxi oshgan bo'lsa, o'sha yuqorilagan narx ko'rinishida qoplanishi lozim.

¹¹ Добровольская Т.Н. К вопросу о возмещении вреда, причиненного необоснованным привлечением к уголовной ответственности и осуждением// Ученые записки, ВИЮН. 10. –М.,1989. –С. 195.

¹² O'zbekiston Respublikasi Oliy sud Plenumining qarorlari to'plami. 1991-2006. 2-jildi. – T.: Adolat, 2006. Birinchi jild. 169-bet.